



## TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISHDAGI ROLI

### THE ROLE OF THE INTERNAL AUDIT SYSTEM IN COMMERCIAL BANKS IN MAKING MANAGEMENT DECISIONS

<sup>1</sup>Kuzibayev Umid  
Maxsitaliyevich

<sup>1</sup>Farg'ona davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi.  
G-mail: [umidjonquzibayev1987@gmail.com](mailto:umidjonquzibayev1987@gmail.com)

#### Annotatsiya Abstract

*Uzb.* - Mazkur maqolada tijorat banklarida ichki audit tizimining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roli tahlil qilingan. Bank tizimini isloh qilish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro standartlarni joriy etish sharoitida ichki auditning strategik ahamiyati ortib borayotganligi asoslangan. Tadqiqotda ichki auditning an'anaviy nazorat funksiyasidan strategik maslahat institutiga transformatsiyalashuvi, riskka asoslangan audit yondashuvining boshqaruv qarorlari sifatiga ta'siri, raqamlashtirish va sun'iy intellekt texnologiyalarining audit jarayonlariga integratsiyasi masalalari yoritilgan. Tahlillar natijasida ichki audit tizimi bilan korporativ boshqaruv sifati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Shuningdek, amaliyotdagi muammolar - ichki audit xizmatining mustaqillik darajasi yetarli emasligi, tavsiyalar ijrosi monitoringi sustligi tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida ichki audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

*Eng.* - This article analyzes the role of the internal audit system in commercial banks in the process of managerial decision-making. In the context of banking sector reforms, improvement of corporate governance, and the implementation of international standards, the strategic importance of internal audit is steadily increasing. The study substantiates the transformation of internal audit from its traditional control function into a strategic advisory institution. It examines the impact of a risk-based audit approach on the quality of management decisions, as well as the integration of digitalization and artificial intelligence technologies into audit processes. The findings reveal a direct relationship between the effectiveness of the internal audit system and the quality of corporate governance. Additionally, existing practical challenges are analyzed, including the insufficient level of independence of internal audit services and weak monitoring of the implementation of audit recommendations. The study concludes with scientifically grounded and practice-oriented proposals aimed at improving the internal audit system in commercial banks.

#### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, ichki audit, boshqaruv qarorlari, riskka asoslangan audit, korporativ boshqaruv, moliyaviy barqarorlik, risk-menejment, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, xalqaro audit standartlari, kredit riski, nazorat tizimi, strategik rejalashtirish, bank islohotlari.*

❖ *commercial banks, internal audit, management decisions, risk-based audit, corporate governance, financial stability, risk management, digitalization, artificial intelligence, international auditing standards, credit risk, internal control system, strategic planning, banking reforms.*

### **Kirish.**

Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot bosqichida tijorat banklari moliyaviy tizimning tayanch instituti sifatida milliy iqtisodiyot barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin egallaydi. Banklar tomonidan amalga oshiriladigan kreditlash, investitsion loyihalarni moliyalashtirish, to'lov tizimlari va moliyaviy vositachilik xizmatlari real sektorning uzluksiz faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bois bank tizimining barqarorligi, shaffofligi va samarali boshqarilishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish, uning kapitallashtirish darajasini oshirish, moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda xalqaro standartlar asosida boshqaruvni takomillashtirish masalalari izchil ravishda ilgari surilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son Farmoni – "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" [1] hujjatida korporativ boshqaruvni takomillashtirish, risk-menejment va ichki nazorat tizimlarini xalqaro standartlarga moslashtirish, ichki audit xizmatlarining mustaqilligini ta'minlash kabi masalalar aniq vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur farmonda banklar faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot bazasini yaratish muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z nutqlarida bank tizimida "ochiqlik, professional boshqaruv va qat'iy nazorat mexanizmlarini joriy etish" zarurligini bir necha bor ta'kidlab kelmoqda [2]. Davlat rahbari banklar faoliyatida risklarni oldindan aniqlash, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda har bir qaror iqtisodiy asoslangan bo'lishi lozimligini alohida qayd etgan. Bu esa tijorat banklarida ichki audit tizimining

boshqaruv qarorlarini shakllantirishdagi rolini yanada kuchaytirishni taqozo etadi.

Zamonaviy bank boshqaruvi sharoitida asosli va samarali qarorlar qabul qilish murakkab ko'p omilli jarayon hisoblanadi. Moliyaviy risklarning ortishi, kredit portfelining sifatiga qo'yilayotgan talablarning kuchayishi, xalqaro moliya bozorlaridagi o'zgarishlar bank rahbariyatidan tezkor va puxta o'ylangan qarorlar qabul qilishni talab etadi. Bunday sharoitda ichki audit tizimi bank boshqaruvining muhim axborot-maslahat mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ichki audit moliyaviy operatsiyalar, ichki nazorat tizimi, risklarni boshqarish jarayonlari va korporativ boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini baholab, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi hamda boshqaruv qarorlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ichki audit tizimi nafaqat nazorat funksiyasini bajaradi, balki bankning strategik rivojlanishida faol ishtirok etuvchi maslahatchi institut sifatida ham shakllanmoqda. Riskka asoslangan audit yondashuvi asosida tekshiruvlarni tashkil etish bank faoliyatidagi ehtimoliy xavflarni aniqlash va ularning ta'sirini kamaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, kredit risklari, likvidlik risklari, operatsion risklar va kompayens risklari bo'yicha beriladigan audit xulosalari boshqaruv qarorlarining sifat ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida bank sektorini raqamlashtirish, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va xalqaro tajribani keng joriy etish vazifalari belgilangan. Ushbu maqsadlarga erishishda ichki audit tizimini zamonaviy talablar asosida transformatsiya qilish, raqamli audit vositalaridan foydalanish hamda sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilini audit jarayoniga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli audit vositalari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda

tezkor va ishonchli tahliliy ma'lumotlar taqdim etish imkonini beradi.

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim tijorat banklarida ichki audit tizimi formal xarakter kasb etib, uning natijalari boshqaruv qarorlariga yetarlicha integratsiya qilinmayotganligi kuzatiladi. Audit tavsiyalarining ijrosini monitoring qilish mexanizmlarining sustligi, ichki audit xizmatining mustaqillik darajasining yetarli emasligi hamda strategik rejalashtirish jarayonlarida audit ma'lumotlaridan to'liq foydalanilmasligi mazkur muammoning dolzarbligini oshiradi. Natijada boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorligi pasayishi va moliyaviy risklarning ortishi ehtimoli yuzaga keladi.

Ichki audit tizimi korporativ boshqaruvning muhim elementi sifatida bank faoliyatida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlaydi. Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarga bankning moliyaviy holati, ichki nazorat tizimi va risklarni boshqarish darajasi haqida mustaqil xulosa taqdim etish orqali ichki audit boshqaruv jarayonining ochiqlikini ta'minlaydi. Bu esa Prezident tomonidan ilgari surilgan "xalqchil va ochiq boshqaruv" tamoyillariga to'liq mos keladi.

Shunday qilib, tijorat banklarida ichki audit tizimini takomillashtirish va uning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi rolini kuchaytirish mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bank islohotlari, Prezident farmon va qarorlarida belgilangan vazifalar hamda raqamli iqtisodiyot talablaridan kelib chiqadigan muhim ilmiy-amaliy masaladir. Ichki auditni strategik boshqaruv vositasi sifatida rivojlantirish bank tizimining barqarorligi, shaffofligi va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Tijorat banklarida ichki audit tizimining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roli mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli

nazariy va empirik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki audit bank boshqaruv tizimining ajralmas elementi bo'lib, u risklarni boshqarish, strategik rejalashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida Z.F. Murtazayeva va S.S. Togayev tijorat banklarida ichki audit tekshiruvlarini tashkil etish tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, ichki audit xizmatining bank faoliyatini xalqaro talablar asosida baholashdagi ahamiyatini asoslab berganlar [4]. Mualliflar ichki auditni moliyaviy operatsiyalar samaradorligini baholash, risklarni identifikatsiya qilish hamda boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlashning asosiy manbai sifatida talqin qiladilar.

U.M. Kuzibayev o'z tadqiqotlarida ichki audit xizmatini yaratish va undan oqilona foydalanish masalalarini chuqur tahlil qilgan [5]. Muallifning fikricha, ichki audit natijalarining ishonchliligi va tizimliliigi rahbariyatga strategik va operativ qarorlarni asosli qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, Kuzibayev tijorat banklarida ichki auditni tashkil etishning asosiy jihatlarini yoritib, ichki auditni bank boshqaruv tizimining samaradorligini oshiruvchi mexanizm sifatida baholaydi [6].

Ichki auditni riskka asoslangan yondashuv asosida rejalashtirish masalalarini I.R. Ibragimova va A.A. Safarov o'z ilmiy ishlarida yoritganlar [7]. Ularning ta'kidlashicha, ichki auditni xalqaro audit standartlari asosida rejalashtirish boshqaruv qarorlarining aniqligi va asoslanganligini ta'minlaydi. Riskka yo'naltirilgan audit yondashuvi banklarda strategik boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotchilar ichki auditning boshqaruv qarorlariga ta'sirini empirik usullar orqali asoslaganlar. Jumladan, N.S. Yousif va

S.A. Mohamed strategik operatsiyalar (qo‘shib olish jarayonlari) risklarini baholashda ichki auditning rolini tadqiq etib, ichki audit va boshqaruv qarorlari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini aniqlaganlar [8]. Ularning xulosasiga ko‘ra, ichki audit strategik qarorlar riskini baholashda muhim maslahat beruvchi va nazorat qiluvchi funksiyani bajaradi.

Kredit risklarini boshqarish jarayonida ichki auditning o‘rnini V. Berisha, F. Morina, A. Hetemi va B. Zeqaj o‘z tadqiqotlarida tahlil qilganlar [9]. Mualliflar ichki audit kredit siyosatini shakllantirish va kredit risklarini kamaytirishda bevosita ta‘sir ko‘rsatishini empirik dalillar asosida isbotlaganlar. Bu esa bank boshqaruvida riskka asoslangan qarorlar qabul qilish jarayonida ichki auditning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Risk-menejment tizimida ichki auditning o‘rni O.Y. Tamimi tomonidan risk-menejerlar nuqtai nazaridan o‘rganilgan [10]. Muallif ichki audit risklarni aniqlash, baholash va monitoring qilish jarayonida mustaqil baholovchi hamda maslahat beruvchi subyekt sifatida ishtirok etishini ta‘kidlaydi. Ichki audit va risk-menejment o‘rtasidagi integratsiya boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshiradi.

Banklarda ichki audit va ichki nazorat tizimining rivojlanish istiqbollari masalasi M. Bazerbashi tomonidan o‘rganilgan [11]. Muallif ichki audit yuqori menejment va operatsion bo‘g‘in o‘rtasidagi axborot tafovutini kamaytiruvchi vosita ekanini qayd etadi. Bu yondashuv agentlik nazariyasi doirasida boshqaruv qarorlarining shaffofligini ta‘minlashda ichki auditning rolini asoslaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda raqamlashtirish va sun‘iy intellekt texnologiyalarining ichki audit sifatiga ta‘siri ham muhim o‘rin egallaydi. F.A. Ajayi va O. Akinrinola tijorat banklarida sun‘iy intellektdan foydalanish audit sifatini oshirishini empirik tadqiqot asosida ko‘rsatib berganlar [12]. Ularning fikricha, SI texnologiyalari real vaqt rejimida

ma‘lumotlarni qayta ishlash imkonini berib, boshqaruv qarorlarini tezkor va aniq qabul qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, auditning boshqaruv qarorlariga ta‘siri umumiy iqtisodiy subyektlar misolida O.A. Kibarov va E.S. Zueva tomonidan o‘rganilgan [13]. Mualliflar audit natijalari boshqaruv qarorlarining asoslanganligi va moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydilar.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ichki audit tizimi tijorat banklarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining muhim institutsional omili hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda ichki audit natijalarining strategik, taktik va operativ boshqaruv darajalariga kompleks integratsiyasi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, O‘zbekiston tijorat banklari sharoitida ichki audit ma‘lumotlarining boshqaruv qarorlariga ta‘sirini chuqur empirik baholash dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida ichki audit tizimining boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonidagi roli va ta‘sirini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda, nazariy va empirik usullar uyg‘unligi ta‘minlandi.

Tadqiqotning nazariy asosini shakllantirishda ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, mantiqiy umumlashtirish, analiz va sintez usullaridan foydalanildi. Ushbu usullar orqali ichki audit tushunchasi, uning bank boshqaruvidagi funksional roli, riskka asoslangan audit yondashuvi va korporativ boshqaruv bilan o‘zaro aloqadorlik jihatlari nazariy jihatdan asoslab berildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Tijorat banklarida ichki audit tizimining boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonidagi o‘rni va ta‘sirini aniqlash mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘ldi. Tadqiqot natijalari ichki audit bank boshqaruvida faqat nazorat

mexanizmi emas, balki strategik ahamiyatga ega bo'lgan axborot-tahliliy institut sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Zamonaviy bank tizimida risklar ko'lamini kengayib borayotgan

bir sharoitda ichki auditning roli yanada ortib, u boshqaruv qarorlarining asoslanganligi, shaffofligi va barqarorligini ta'minlovchi muhim omilga aylanmoqda.

1-jadval

**Tijorat banklarida ichki audit tizimining boshqaruv qarorlariga kompleks ta'siri\***

Tahlil yo'nalishi	Ichki auditning mazmuni	Boshqaruv qarorlariga ta'siri	Natijaviy samaradorlik
<b>Transformatsion rol</b>	Nazoratdan strategik maslahat funksiyasiga o'tish	Qarorlar analitik asosga o'tadi	Subyektivlik kamayadi, asoslanganlik oshadi
<b>Riskka asoslangan yondashuv</b>	Risklarni identifikatsiya, baholash va ustuvorlashtirish	Kredit, investitsiya va likvidlik qarorlari ehtiyotkorlik bilan qabul qilinadi	Risk darajasi pasayadi
<b>Kredit portfeli tahlili</b>	Muammoli kreditlarni aniqlash va monitoring qilish	Kredit siyosati qayta ko'rib chiqiladi	Kredit sifati yaxshilanadi
<b>Operatsion nazorat</b>	Ichki jarayonlar va axborot oqimlarini baholash	Ichki nazorat mexanizmlari kuchaytiriladi	Operatsion xatoliklar kamayadi
<b>Korporativ boshqaruv integratsiyasi</b>	Audit qo'mitasi va kuzatuv kengashi bilan hamkorlik	Strategik rejalashtirish sifati oshadi	Shaffoflik va javobgarlik kuchayadi
<b>Xalqaro standartlarga moslik</b>	Audit jarayonlarini metodologik tartibga solish	Moliyaviy hisobotlarga asoslangan qarorlar ishonchligi ortadi	Investor va regulyator ishonchi oshadi
<b>Raqamlashtirish va SI</b>	Real vaqt monitoringi va katta ma'lumotlar tahlili	Tezkor va aniq qaror qabul qilish imkoniyati	Operativlik va aniqlik oshadi
<b>Strategik rejalashtirish integratsiyasi</b>	Audit ma'lumotlarini uzoq muddatli strategiyaga qo'shish	Resurslar optimal taqsimlanadi	Barqaror o'sish ta'minlanadi
<b>Muammolar va cheklovlar</b>	Malaka yetishmovchiligi, tavsiyalar ijrosi sustligi	Audit ta'siri to'liq namoyon bo'lmaydi	Samaradorlik pasayishi ehtimoli mavjud

\*Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ichki auditning funksional doirasi an'anaviy tekshiruv va kamchiliklarni aniqlash doirasidan chiqib, strategik maslahat berish bosqichiga o'tgan. Bank boshqaruvi murakkablashgani sari yuqori rahbariyat barcha operatsion jarayonlarni bevosita nazorat qila olmaydi. Aynan shu sharoitda ichki audit rahbariyat bilan operatsion bo'linmalar o'rtasida muvofiqlashtiruvchi va axborot ko'prigi vazifasini bajaradi.

Ichki audit tizimi samarali yo'lga qo'yilgan banklarda boshqaruv qarorlari faqat moliyaviy natijalarga emas, balki risk ko'rsatkichlari, ichki nazorat samaradorligi va

strategik maqsadlarga moslik mezonlariga ham asoslanadi. Bu esa qaror qabul qilish jarayonini subyektiv yondashuvdan analitik asoslangan modelga o'tkazadi. Natijada banklarda resurslarni taqsimlash, kredit siyosatini shakllantirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda likvidlikni boshqarish bo'yicha qarorlar ancha puxta va ehtiyotkorlik bilan qabul qilinadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ichki audit faoliyatini riskka asoslangan model asosida tashkil etish boshqaruv qarorlarining sifatini sezilarli darajada oshiradi. Risklarni tizimli ravishda identifikatsiya qilish, ularni baholash va ustuvorlik darajasiga ko'ra

tasniflash bank faoliyatining zaif nuqtalarini aniqlash imkonini beradi.

Xususan, kredit operatsiyalarida risk darajasini chuqur tahlil qilish orqali muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, kredit portfeli diversifikatsiyasini yaxshilash va kapital yetarliligini ta'minlash mumkinligi kuzatildi. Shuningdek, operatsion risklarni monitoring qilish natijasida ichki jarayonlardagi takrorlanayotgan xatoliklar kamaygan, axborot oqimlarining ishonchliligi oshgan hamda ichki nazorat tizimi mustahkamlangan.

Riskka asoslangan ichki audit boshqaruv qarorlarining uzoq muddatli barqarorlik mezonlariga mosligini ta'minlaydi. Ya'ni, qarorlar qisqa muddatli foydaga emas, balki bankning strategik rivojlanish istiqboliga yo'naltiriladi. Bu holat ayniqsa iqtisodiy beqarorlik va moliyaviy inqirozlar sharoitida banklarning barqarorligini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar ichki audit tizimi bilan korporativ boshqaruv sifati o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Ichki audit kuzatuv kengashi va audit qo'mitasi bilan uzviy hamkorlik qilgan banklarda strategik rejalashtirish yanada izchil tashkil etilgan. Bunday banklarda ichki audit xulosalari boshqaruv yig'ilishlarida muntazam muhokama qilinadi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Ichki auditning mustaqilligi va obyektivligi ta'minlangan holatda boshqaruv qarorlarida manfaatlar to'qnashuvi ehtimoli kamayadi. Shuningdek, ichki audit korporativ boshqaruv mexanizmlarini baholab, boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligini tahlil qiladi. Natijada banklarda javobgarlik darajasi oshadi, qarorlar ijrosi ustidan nazorat kuchayadi va shaffoflik darajasi yuqorilaydi.

Tadqiqot natijalari ichki auditni xalqaro audit standartlari asosida tashkil etish boshqaruv qarorlarining ishonchliligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Xalqaro tamoyillarga mos ravishda ishlab

chiqilgan audit dasturlari, risklarni baholash metodologiyasi hamda hujjatlashtirish tartibi ichki audit faoliyatining tizimlilikini oshiradi.

Xalqaro tajriba asosida tashkil etilgan ichki audit tizimi banklarda moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini ta'minlab, investorlar va regulyatorlar ishonchini mustahkamlaydi. Bunday sharoitda boshqaruv qarorlari moliyaviy ko'rsatkichlar, ichki nazorat natijalari hamda risk tahliliga asoslangan holda qabul qilinadi. Bu esa bankning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari ichki audit faoliyatining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib kelmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish, real vaqt rejimida monitoring olib borish va anomaliyalarni tez aniqlash imkoniyati ichki auditning operativligini oshirdi.

Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili vositalaridan foydalanish audit qamrovini kengaytirib, inson omili bilan bog'liq xatoliklarni kamaytirmoqda. Bu esa boshqaruv qarorlarining tezkorligini va aniqligini oshiradi. Raqamli audit vositalari bank operatsiyalaridagi yashirin risklarni erta aniqlashga xizmat qilib, moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish imkonini beradi.

Shuningdek, raqamlashtirish sharoitida ichki audit yangi turdagi risklar – kibexavfsizlik, axborot tizimlari nosozligi, ma'lumotlar himoyasi kabi yo'nalishlarni ham qamrab olishi zarur. Bu esa audit xodimlaridan yuqori darajadagi professional va texnologik kompetensiyalarni talab etadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, ichki auditni strategik rejalashtirish jarayoniga integratsiya qilish bank boshqaruvi samaradorligini sezilarli oshiradi. Ichki audit tomonidan taqdim etilgan tahliliy ma'lumotlar strategik maqsadlarni aniqlashtirish, resurslarni optimal taqsimlash va ustuvor yo'nalishlarni belgilashda muhim rol o'ynaydi.

Agar ichki audit strategik rejalashtirish bosqichida faol ishtirok etsa, bankning rivojlanish strategiyasi risklarni inobatga olgan holda shakllanadi. Bu esa noto'g'ri investitsion qarorlar qabul qilish ehtimolini kamaytiradi hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Ichki audit tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi banklarda moliyaviy yo'qotishlar va noto'g'ri boshqaruv qarorlariga olib kelishi mumkin. Tadqiqotlar ichki audit mexanizmlari zaif bo'lgan banklarda operatsion xatoliklar va moliyaviy risklar darajasi yuqori ekanini ko'rsatadi [14]. Bu ichki auditni bank faoliyatining xavfsizlik mexanizmi sifatida baholash zarurligini anglatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida ayrim muammolar ham aniqlangan. Birinchidan, barcha banklarda ichki auditning strategik darajadagi roli yetarlicha shakllanmagan. Ba'zi hollarda audit xizmati faqat nazorat va tekshiruv bilan cheklanib, maslahat berish funksiyasi yetarli darajada rivojlanmagan.

Ikkinchidan, ichki audit xodimlarining malaka darajasi va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari barcha banklarda bir xil emas. Bu esa audit samaradorligini cheklashi mumkin.

Uchinchidan, audit tavsiyalarining ijro intizomi har doim ham yuqori emas. Agar aniqlangan kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, ichki auditning boshqaruv qarorlariga real ta'siri kamayadi.

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy natijalar shakllantirildi:

- Ichki audit tijorat banklarida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim analitik va maslahat beruvchi institut sifatida faoliyat yuritadi.

- Riskka asoslangan audit modeli bank barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

- Ichki audit va korporativ boshqaruv o'rtasida ijobiy funksional bog'liqlik mavjud.

- Xalqaro standartlar va raqamlashtirish ichki audit samaradorligini oshiradi.

- Ichki auditning strategik rejalashtirish jarayoniga integratsiyasi qarorlar sifatini yaxshilaydi.

Shunday qilib, ichki audit tizimi tijorat banklarida boshqaruv qarorlarini shakllantirish, risklarni minimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitda ichki auditni strategik boshqaruv mexanizmining ajralmas qismi sifatida rivojlantirish bank tizimining barqaror va raqobatbardosh faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

### **Xulosa va takliflar.**

Olib borilgan tadqiqot natijasida tijorat banklarida ichki audit tizimining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roli kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotimiz doirasida quyidagi asosiy ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirdik:

Birinchidan, zamonaviy bank boshqaruvida ichki audit tizimi an'anaviy nazorat funksiyasidan strategik maslahat institutiga aylanib bormoqda. Bizningcha, ichki audit nafaqat moliyaviy operatsiyalar va ichki nazorat tizimini tekshirish, balki bank faoliyatidagi risklarni erta aniqlash, boshqaruv qarorlarining asoslanganligini ta'minlash hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Fikrimizcha, aynan shu transformatsion jarayon bugungi bank menejmentining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlamoqda.

Ikkinchidan, riskka asoslangan audit yondashuvi banklarda strategik va operativ qarorlar sifatini yaxshilashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bizningcha, riskka asoslangan audit modeli banklarda muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va kapital yetarliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu yondashuvni keng joriy etish bank tizimi barqarorligining kafolati sifatida qaralishi lozim.

Uchinchidan, ichki audit va korporativ boshqaruv o'rtasida mustahkam funksional bog'liqlik mavjud bo'lib, fikrimizcha, bu bog'liqlik bank boshqaruvining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ichki auditning mustaqilligi va obyektivligi ta'minlangan banklarda boshqaruv qarorlarining ijro intizomi yuqori bo'lib, javobgarlik darajasi oshadi. Bizningcha, bu holat Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "xalqchil va ochiq boshqaruv" tamoyillariga to'liq mos keladi.

To'rtinchidan, xalqaro audit standartlari va raqamlashtirish jarayonlarining auditga integratsiyasi ichki audit sifatini yangi bosqichga ko'tarmoqda. Bizningcha, katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, anomalialarni tez aniqlash va yashirin risklarni erta baholash imkoniyati boshqaruv qarorlarining tezkorligi va aniqligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar asosida biz quyidagi taklif va tavsiyalarni berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Ichki auditning strategik maslahat funksiyasini rivojlantirish. Bizningcha, ichki audit bo'limlari tomonidan bank rahbariyatiga muntazam ravishda strategik tavsiyalar ishlab chiqish, investitsiya loyihalari va yirik moliyaviy operatsiyalar bo'yicha mustaqil ekspertiza o'tkazish amaliyoti joriy etilishi lozim. Fikrimizcha, bu audit xizmatining nufuzini oshirib, uning boshqaruv qarorlariga ta'sirini kuchaytiradi.

2. Riskka asoslangan audit modelini takomillashtirish. Bizningcha, risk darajasi yuqori bo'lgan yo'nalishlarga ustuvorlik berish, kredit, likvidlik va operatsion risklar bo'yicha chuqurlashtirilgan audit tekshiruvlarini o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yilishi kerak. Shu bilan birga, yangi bank mahsulotlarini joriy etishdan oldin ularning risk darajasini baholashda ichki audit xizmatining majburiy ishtiroki ta'minlanishi lozim.

3. Ichki audit va korporativ boshqaruv o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish. Fikrimizcha, audit qo'mitasi yig'ilishlarida ichki audit xulosalarini muntazam muhokama qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularning ijrosini monitoring qilish mexanizmlari takomillashtirilishi zarur. Bizningcha, bu jarayonda kuzatuv kengashining roli yanada kuchaytirilishi maqsadga muvofiq.

4. Xalqaro audit standartlarini to'liq joriy etish. Bizningcha, ichki audit faoliyatini xalqaro standartlar (IIA standartlari, Bazel qo'mitasi tamoyillari) talablariga to'liq moslashtirish, audit metodologiyasini xalqaro talablar asosida takomillashtirish lozim. Shu bilan birga, ichki audit xodimlarining xalqaro sertifikatlash dasturlarida ishtirok etishini rag'batlantirish maqsadga muvofiq.

5. Raqamli audit texnologiyalarini joriy etish. Fikrimizcha, uzluksiz audit tizimini yaratish, real vaqt rejimida monitoring olib borish imkonini beruvchi dasturiy mahsulotlarni joriy etish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili vositalaridan foydalanishni kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir. Bizningcha, bu borada "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar bilan uyg'un holda harakat qilish lozim.

6. Audit tavsiyalari ijrosini monitoring qilish tizimini takomillashtirish. Bizningcha, audit tavsiyalari reyestrini yuritish, ularning bajarilish muddatlarini nazorat qilish, ijro etilmagan tavsiyalar yuzasidan yuqori boshqaruv organlarini muntazam xabardor qilish amaliyoti yo'lga qo'yilishi kerak. Fikrimizcha, bu audit samaradorligini oshirishning muhim shartidir.

7. Ichki audit xodimlarining malakasini oshirish. Bizningcha, audit xodimlari uchun doimiy ravishda o'quv seminarlari, treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish, ularning zamonaviy bank texnologiyalari va

axborot tizimlari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish lozim.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi, bizningcha, tijorat banklarida ichki audit tizimining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi rolini sezilarli darajada kuchaytiradi, bank boshqaruvi samaradorligini oshiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi. Fikrimizcha, bu esa O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish

strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga, bank tizimining shaffofligi, raqobatbardoshligi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, bizningcha, tijorat banklarida ichki audit tizimini takomillashtirish masalasi doimiy e'tiborda bo'lishi va izchil amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralishi kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020 – 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 12.05.2020-yildagi PF-5992-son. <https://lex.uz/ru/docs/-4811025>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025-yil. <https://president.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, 05.10.2020-yildagi PF-6079-son. <https://lex.uz/docs/-5030957>
4. Murtazayeva, Z., Togaev, S., Murtazayeva, Z., & Togayev, S. *Internal Audit Inspections in Commercial Banks Organization Procedure and Specific Characteristics. Economic Development and Analysis*, 2(1), 75-82.
5. Maxsitaliyevich, K. U. (2024). *Korxonada ichki audit xizmatini yaratish va undan oqilona foydalanish masalalari. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 265-271.
6. Maxsitaliyevich, K. U. (2025). *Tijorat banklarida ichki auditni tashkil etishning asosiy jihatlari. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (11), 1209-1217.
7. Ibragimova, I., & Safarov, A. *Banklarda Ichki Auditni Rejalashtirish Masalalari. Green Economy and Development*, 2(1), 664244.
8. Yousif, N. S., & Mohamed, S. A. (2022). *The Role of Internal Audit in Assessing the Risks of Management Decisions Regarding Strategic Operations) Acquisition). Journal of Economics and Administrative Sciences*, 28(133), 172-186.
9. Berisha, V., Morina, F., Hetemi, A., & Zeqaj, B. (2023). *The role of internal audit in credit risk management in commercial banks. Economic alternatives*, 29(1), 115-130.
10. Tamimi, O. (2021). *The role of internal audit in risk management from the perspective of risk managers in the banking sector. Australasian Accounting, Business and Finance Journal*, 15(2).
11. Мохаммад, Б. (2019). *Внутренний аудит и контроль в банках: проблемы и перспективы развития. Московский экономический журнал*, (6), 192-206.
12. Ajayi, F. A., & Akinrinola, O. (2023). *Artificial intelligence & internal audit quality of commercial banks in Nigeria. International Journal of Management and Economics Invention*, 9(04), 2897-2906.
13. Кибаров, О. А., & Зуева, Е. С. (2022). *Влияние аудита на принятие управленческих решений. Экономика и социум*, (4-2 (95)), 952-954.
14. Сарунова, М. П., Гаджиев, Н. Г., & Берикова, Д. Д. (2024). *Современное состояние регулирования внутреннего финансового аудита в учреждениях государственного сектора. Экономическая политика и финансовые ресурсы*, 3(3), 70-85.